

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITABI”GA KIRITILGAN
MURAKKABGULDOSHLAR OILASINI O‘RGANISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR**

Samandarova Zebo Lapasovna

*Sirtqi (maxsus sirtqi) bo’limi Tabiiy va aniq
fanlarda masofaviy ta’lim kafedra o’qituvchisi*

To’rakulova Visola Xudaykulovna

*Sirtqi (maxsus sirtqi) bo’limi Tabiiy va aniq
fanlarda masofaviy ta’lim kafedra o’qituvchisi*

Fayzieva Barno Maxmudovna

Sirtqi (maxsus sirtqi) bo’limi talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Murakkabguldoshlar oilasini o‘rganish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi to‘g‘risida hamda “Tarmoqlar” metodi haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “ Qizil kitob”, Suvorov piyozlari, murakkabguldoshlar oilasi, sassiq kovrak, “Tarmoqlar” metodi.

Аннотация. В данной статье рассматривается исследование семьи Муракгулгульдощ, занесенной в Красную книгу Республики Узбекистан, на предмет эффективности учебного процесса и методики «Сети».

Ключевые слова: «Красная книга», суворовский лук, семейство замысловатых цветов, вонючий хрупкость, метод «Сетей».

Annotation. This article discusses the study of the Murakgulguldosh family, which is included in the Red Book of the Republic of Uzbekistan, on the effectiveness of the educational process and the method of "Networks".

Key words: "Red Book", Suvorov onions, family of intricate flowers, stinky brittle, "Networks" method.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi ta’lim sifatining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Jumladan, biologiya

fanini o'rganishda yangi axborot texnologiyalarining o'rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlardan tabiiy fanlarni chuqurroq o'rganishga oid barcha fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etadi. Bu o'z navbatida zamonaviy ta'lim tizimi oldiga ma'naviyati yuksak, intellektual salohiyati yuqori, ilmiy dunyoqarashi keng, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash lozimligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning extiyojiga aylandi. Pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchilar faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Tabiiy fanlarni o'simlik va hayvonot olamini pedagogik texnologiya asosida o'rganish dolzarb masala ko'tarildi. Insoniyat tarixida "Qizil kitob" ning nashr etilishi tabiatda biologik xilma-xillikni saqlab qolishga qaratilgan harakatlarning amaliy bosqichiga o'tilganligidan dalolat beradi. Ushbu kitob o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish uchun asosiy davlat hujjati sifatida muhim milliy ahamiyatga ega bo'lishdan tashqari, mamlakatlarining ularni (o'simlik va hayvon) muhofaza qilishga taaluqli xalqaro konvetsiya va bilimlarni imzolash paytida o'z zimmlariga olgan majburiyatlarining ham ifodasidir.

Tabiiy sharoitda o'sadigan o'simlik turlarining kamayib ketishiga eng asosiy sabab- aholining tabiatga noto'g'ri munosabatidir. Hozirgi kunga kelib yirik shaharlar va qishloqlarimiz atrofida qizil lola, sallagul, shirach va shunga o'xshash nafis gulli o'simliklar juda kamayib ketgan.

Bu borada yuzaga kelayotgan muammolarning qay darajada jiddiylashib borayotganligini O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning yangi nashrlarida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, "Qizil kitob" O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining olimlari tomonidan nashrga tayyorlanadi. Mazkur kitobning avvalgi nashri chop etilganidan beri oradan o'tgan 10 yil ichida O'zbekistonning o'simlik dunyosi

tarkibida qanday o'zgarishlar ro'y berdi, ayniqsa, uning noyob turlari bo'yicha holat qanday?

“Qizil kitob”ning 1984-yilgi ilk marta chop etilgan nashriga O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan 163 ta turi kiritilgan.

Bu turlarning taqdiri bilan respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o'simlik turlar tuplarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko'rsatmoqda.

Masalan, so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar anzur va Suvorov piyozlari ma'lum darajada ko'payganligini ko'rsatadi. Milliy floramizning eng kamyob o'simliklardan sanalgan Minkvits teziumi tuplarining soni 17 tadan 100 dan ortiq tuplarga ortganligi bir necha yillar davomida olib borilgan dala kuzatuvlari orqali aniqlandi. Ayni vaqtda ayrim o'simlik turlarining tarqalish maydonlari keskin qisqarib, tabiiy populyatsiyalarining holati salbiy tomonga o'zgargan. Omonqora, Piskom piyoz, Margarita marmaragi, tiyonshon marmaragi kabilar shular jumlasidandir. Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasiga mansub yana 138 turdagi o'simlikni “Qizil kitob”ga kiritish lozimligini ko'rsatmoqda. 1998-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 tani tashkil etgan bo'lsa, yangi nashrdan 48 oilaga mansub 313 turdagi o'simlik o'rin oldi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy xodimlarining keyingi yillar mobaynida viloyatlar kesimida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samarasi o'laroq, “Qizil kitob”ning avvalgi (2009) nashridagi ma'lumotlar yangilandi, ya'ni, “Qizil kitob”ning yangi nashriga ayrim jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, O'zbekistonda kam uchrashi, tarqalish hududlari, ya'ni tarqalish maydonlari, asosan boshqa mamlakatlar (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqalar)ga to'g'ri kelganligi sababli, botqoq toshyorari, kechki lloydiya, Martius qilicho'ti, Oltoy trolliusi, yumaloqbargli parpi, Tojikiston yetmigi va boshqa bir qancha turlar “Qizil kitob”dan chiqarish lozimligi borasidagi ilmiy tavsiyalar tayyorlandi. Ulug'bek skabiozasi, Olga sorbariyasi, Oloy nataliyellasi ham “Qizil kitob”dagi turlar ro'yxatidan chiqarildi, sababi, hozirgi kundagi

ma'lumotlarga ko'ra, ularning areallari O'zbekiston hududiga tegishli emasligi aniqlandi.

“Qizil kitob”ning yangi nashriga antropogen omillar ta'siri ostida qolgan va tobora kamayib borayotgan bir nechta tur ham kiritilgan.

Bunga asosiy sabab, tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan o'simlik xomashyosi (shirasi) nazoratsiz, rejasiz va noto'g'ri (o'simlik ildizi o'zak qismini to'liq kesib tashlash orqali – bunda o'simlikning to'liq nobud bo'lishiga olib keladi) yig'ib olinayotganligidir. Boisi shuki, o'simlikdan farmatsevtikada qon to'xtatuvchi boylam sifatida foydalaniladi. Xalq tabobatiga bag'ishlangan qator ilmiy manbalarda bu shira amenoreya kasalligini davolashda kataral mahsulot sifatida tavsiya etilgan. Ko'pchilik Sharq davlatlarida xalq tabobatida bu o'simlik ildizidan olinadigan shirasi quruq yo'tal, meteorizm va tomir tortishish kasalliklarida foydalaniladi. Ateroskleroz, katarakta, asab va ruhiy buzilishlarning rivojlanishini tormozlovchi vosita sifatida yuqorida darajada qadrlanadi. Bundan tashqari, o'simlik kuchli antigelmint xususiyatiga ega. Qandolatchilikda xushbo'y hid beruvchi sifatida foydalaniladi. Biroq, bularning barchasi qat'iy tavsiyalar asosida va dori vositalarini tayyorlash retsentlariga jiddiy rioya qilingani taqdiridagina ijobiy ta'sir ahamiyatiga ega bo'lishini unutmaslik lozim.

Respublikamizning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xududlaridagi yuqori adir va quyi tog' mintaqalarida joylashgan tabiiy zaxiralaridan, ya'ni) bunday nooqilona foydalanish natijasida ilgari xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan maydonlar butkul yaroqsiz holatga kelib, mazkur turni O'zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning navbatdagi nashriga 3-maqom bilan tavsiya etilishiga asos bo'ldi.

Endilikda, tojik kovragi tabiiy populyatsiyalarini saqlab qolish va qayta tiklash uchun:

- o'simlik tabiiy populyatsiyalaridan uning shirasini yig'ib olishga yo'l qo'ymaslik (bu o'simlik populyatsiyalarining qayta tiklanishiga zamin yaratadi);

- o'simlikni keng masshtabli sun'iy plantatsiyalarini tashkil etish;

- sun'iy plantatsiyalarni tashkil etishda o'simlik tabiiy populyatsiyalaridan foydalanish, ya'ni populyatsiyalarga zarar yetkazmagan holda o'simlik urug'larini yig'ib olish;

- o'simlikni tabiiy populyatsiyalaridan foydalanishda qat'iy nazoratga yo'lga qo'yish;

- o'z navbatida, tegishli tashkilotlar tomonidan tabiiy populyatsiyalarni muhofaza qilishni qat'iy chora-tadbirlar rejasi asosida amalga oshirishni yo'lga qo'yish zarur.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, O'zR FA Botanika instituti tomonidan dorivor va xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan o'simliklarning tabiiy zahiralarni o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan o'simlik xomashyosi rejasiz va nazoratsiz yig'ib olinishi natijasida sassiq kovrak (*Ferula foetida* L.), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.), Samarqand o'lmaso'ti (*Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp.) kabilarning ham tabiiy populyatsiyalarining keskin qisqarib ketganligi va zahiralari deyarli qolmaganligi aniqlandi. Bu esa mazkur o'simliklarning ham tojik kovragi qatorida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ning navbatdagi nashriga tavsiya etilishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan Murakkabguldoshlar oilasiga mansub turlarni o'rganishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan:


1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan va ayrim vakillariga tavsif berish

2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga ushbu oilaga mansub bo'lgan turlarning kiritilishiga sabab bo'lgan olmillarni o'rganish va taxlil qilish.

O'zbekistonda murakkabguldoshlar oilasiga mansub 137 turkumiga oid 597 tur o'simlik o'sadi. Bu oila gulli o'simliklar ichida eng kattasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga ushbu oiladan 13 turkumga oid 50 tur kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Murakkabguldoshlar oilasini o‘rganish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, talabalarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

“Tarmoqlar” metodi - fikrlarning tarmoqlanishi - bu metod o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma - ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umulashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz botanika fanidan “ noyob o‘simliklar” mavzusidagi takrorlash-umulashtirish darsida ifodalanish mumkin bo‘lgan klasterdan namuna sifatida misol keltiramiz:



Bu metod o‘quvchilarga mavzuni to‘liq o‘zlashtirish, mustaqil fikr yuritish uchun asqotadi.

Bugungi kunda ta’limning bosh maqsadi har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarga ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy –

ma'rifiy moslashgan, ta'lim va kasb – hunar dasturlarini ongli ravishda tanlab puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarga bilim berish jarayonida ularni fikrlashga, mustaqil ishlanishga yo'naltiradigan har xil usullar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish muhimligini keltirib chiqaradi. O'quvchilarning bilish faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit, bir tizim sifatida olib borish o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini bir-biri bilan uzviy ravishda shakllantirishda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etiladi. Bunda esa o'qitishning ilg'or pedagogik metodlaridan foydalanish o'qitishning sifatini oshirishga ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'. Pratorov. Tadjeddinova D. "O'simlik oilalari, turkum va tiplarining ilmiy va mahalliy nomlari" T. 2010 y.
2. Flora Uzbekistana I-IV t. T. Fan 1941-1962
3. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi", "Fan" 1983 y
4. O'zbekiston Respublikasi " Qizil kitobi"1-tom. T.1999y
5. O'zbekiston Respublikasi"Qizil kitobi". 1-tom. T. 2006 y
6. O'zbekiston Respublikasi" Qizil kitobi"
1-tom 2009 y